

THE ROLE OF HUMAN COGNITION IN THE MANIFESTATION OF CONTRADICTIONAL RELATIONS IN REALITY THROUGH SYNTACTIC ANTONYMS IN LANGUAGE

Nasiba Sayidmakhamadovna SAYIDIRAXIMOVA

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor
Department of Uzbek and Foreign Languages
International Islamic Academy of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan

BORLIQDAGI ZIDDIYATLI MUNOSABATLARNING TILDA SINTAKTIK ANTONIMLAR ORQALI VOQELANISHIDA INSON BILIMLARINING O'RNI

Nasiba Sayidmaxamadovna SAYIDIRAXIMOVA

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
O'zbek va xorijiy tillar kafedrası
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Toshkent, O'zbekiston

РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЗНАНИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ ПРОТИВОПОЛОЖНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЯЗЫКЕ ЧЕРЕЗ СИНТАКСИЧЕСКИЕ АНТОНИМЫ

Насиба Сайидмамадовна САЙИДИРАХИМОВА

Кандидат филологических наук, доцент
Кафедра узбекского и иностранных языков
Международная исламская академия Узбекистана
Ташкент, Узбекистан sayidiraximova@gmail.com <https://orcid.org/0000-0001-7897-4962>

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Sayidirahimova N.S. Borliqdagi ziddiyatli munosabatlarning tilda sintaktik antonimlar orqali voqelanishida inson bilimlarining o'rni // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 5. — B. 30-44.

<https://doi.org/10.36078/1762245710>

Received: August 14, 2025


Accepted: October 17, 2025

Published: October 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. The problem of how contradictions in reality are reflected in human cognition and expressed in language is considered a fundamental issue in linguistics, semiotics, and philosophy. However, the realization of oppositional relations in syntactic antonyms has only been partially addressed in the works of scholars such as Ferdinand de Saussure, R. Jakobson, N. Chomsky, G. Lakoff and M. Johnson, and C. Levi-Strauss, while in Russian linguistics it was briefly noted by V. V. Vinogradov, Y. Stepanov, and A. N. Juravlyov, without becoming a separate object of research. Therefore, analyzing this phenomenon from a linguo-cognitive perspective remains a pressing scientific task. The article explores the manifestation of contradictory relations in language, particularly through syntactic antonyms, within a linguo-cognitive framework. Opposition and contradiction are recognized as essential logical foundations of human thought, and antonymy, accordingly, holds significance not only at the lexical but also at the syntactic level. Syntactic antonyms reflect oppositional relations between grammatical constructions, representing contradictions in the linguistic system and enhancing communicative effectiveness. Special attention is given to the role of human cognition, emphasizing that the formation and use of syntactic antonyms are closely tied to cognitive processes. As individuals perceive the

world, they generalize oppositional phenomena as logical categories and express them through language. In this process, syntactic antonyms serve communicative needs by delivering contradictions concisely and effectively, while also functioning as a means of emphasis. The article also examines the communicative functions of contradictory and contrary oppositions in syntactic structures, their role in discourse practices, and their realization across different social and stylistic contexts. The conclusion establishes that syntactic antonyms are one of the most important linguistic devices for representing contradictions in reality, organizing knowledge, developing logical reasoning, and enriching communication. The findings of this study provide both theoretical and practical value for further linguo-cognitive research.

Keywords: syntactic antonyms; opposition, contradiction; linguo-cognitive approach; cognition; unity of language and thought; contradictory opposition; contrary opposition; discourse; communicative function.

Annotatsiya. Ma'lumki, inson o'zini o'rab turgan borliqqa nisbatan qarashini asosan qarama-qarshi munosabatlar orqali shakllantiradi. Borliqdagi ziddiyatlarning inson tafakkuridagi aksini til orqali ifodalash masalasi lingvistika, semiotika va falsafa nuqtayi nazaridan fundamental hodisa hisoblanadi. Biroq sintaktik antonimlarda zid munosabatlarning voqelanishi masalasi jahon tilshunosligida F. de Sossyur, R. Yakobson, N. Xomskiy, J. Lakoff va M. Djonson, L. Levi-Strosslar, rus tilshunosligida esa V. V. Vinogradov, Y. Stepanov, A. N. Juravlyov kabi tadqiqotchilarning ishlarida faqat qisman tilga olingan, ammo maxsus tadqiqot obyekti sifatida chuqur o'rganilmagan. Shu bois ushbu masalani lingvokognitiv aspektida — antroposentrik paradigmada atroflicha tahlil qilish tilshunoslikning dolzarb imiy vazifalardan biri sanaladi. Qarama-qarshilik va zidlik hodisalari inson tafakkurining eng muhim mantiqiy asoslaridan biri sanaladi. Shu sababli til va tafakkur birligida antonimiya hodisasi nafaqat leksik, balki sintaktik sathda ham alohida o'ringa ega. Sintaktik antonimlar grammatik konstruksiyalar o'rtasidagi qarama-qarshi munosabatlarni ifodalash orqali borliqdagi zidliklarni til tizimida aks ettiradi hamda muloqot jarayonida nutqiy samaradorlikni ta'minlaydi. Umuman olganda, maqolada borliqdagi ziddiyatli munosabatlarning tilda ifodalanishi, xususan, sintaktik antonimlar orqali voqelanishida inson bilimlarining roli masalasi lingvokognitiv aspektida atroflicha tahlil qilinadi. Unda inson bilimlarining o'zni keng yoritilib, sintaktik antonimlarning shakllanishi va qo'llanishi kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog'liqligi alohida ta'kidlanadi. Jumladan, inson olamni idrok etar ekan, unda mavjud qarama-qarshi hodisalarni mantiqiy kategoriyalar sifatida umumlashtiradi va til vositasida ifodalaydi. Bu jarayonda sintaktik antonimlar kommunikativ ehtiyojni ta'minlash, zidliklarni aniq va lo'nda shaklda yetkazish, shuningdek, fikrni kuchaytirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, sintaktik antonimlarning nutqiy faoliyatda tutgan o'zni, ularning turli yosh va ijtimoiy guruhlar nutqida namoyon bo'lish xususiyatlari, zamonaviy kommunikatsiya jarayonida zidliklarni ifodalashdagi imkoniyatlari ham tahlil qilinadi. **Kalit so'zlar:** sintaktik antonimlar; qarama-qarshilik; zidlik; lingvokognitiv yondashuv; tafakkur; til va tafakkur birligi; kontradiktor qarama-qarshilik; kontrar qarama-qarshilik; nutqiy faoliyat; kommunikativ vazifa.

Аннотация. Известно, что человек формирует своё отношение к окружающей действительности в основном через противоположные отношения. Проблема выражения в языке отражения противоречий, существующих в действительности и проявляющихся в человеческом мышлении, рассматривается как фундаментальное явление с точки зрения лингвистики, семиотики и философии. Однако вопрос реализации противоположных отношений в синтаксических антонимах лишь частично затрагивался в трудах таких зарубежных лингвистов, как Ф. де Соссюр, Р. Якобсон, Н. Хомский, Дж. Лакофф и М. Джонсон, К. Леви-Стросс, а также в русской лингвистике В. В. Виноградовым, Ю.С. Степановым, А. Н. Журавлёвым и другими исследователями, но не был предметом специального изучения. Поэтому всесторонний анализ данной проблемы в лингвокогнитивном аспекте в рамках антропоцентрической парадигмы является одной из актуальных научных задач современной лингвистики. Явления противоположности и противоречия являются одними из важнейших логических основ человеческого мышления. Поэтому в единстве языка и мышления явление антонимии занимает особое место не только на лексическом, но и на синтаксическом уровне. Синтаксические антонимы, выражая противоположные отношения между грамматическими конструкциями, отражают противоречия, существующие в действительности, в языковой системе, и обеспечивают речевую эффективность в процессе коммуникации. В целом в статье всесторонне анализируется проблема выражения противоречивых отношений, существующих в действительности, в языке, в частности их реализации через синтаксические антонимы в лингвокогнитивном аспекте. В статье подробно раскрывается роль человеческих знаний, подчёркивается тесная взаимосвязь формирования и употребления синтаксических антонимов с когнитивными процессами. В частности, человек, воспринимая окружающий мир, обобщает существующие в нём противоположные явления как логические категории и выражает их посредством языка. В этом процессе синтаксические антонимы выступают средством обеспечения коммуникативной потребности, точной и лаконичной передачи противоречий, а также усиления выразительности мысли. Кроме того, анализируется роль синтаксических антонимов в речевой деятельности, особенности их проявления в речи представителей различных возрастных и социальных групп, а также их возможности в выражении противоречий в современном коммуникативном процессе.

Ключевые слова: синтаксические антонимы; противоположность; противоречие; лингвокогнитивный подход; мышление; единство языка и мышления; контрадикторная противоположность; контрастная противоположность; речевая деятельность; коммуникативная функция.

Kirish

Borliq bu jonli va jonsiz olamdagi barcha hodisalar, jarayonlar, narsa va voqeliklar majmuasidir. Uning asosiy xususiyatlaridan biri ziddiyatli munosabatlar asosiga qurilganligida. Ziddiyat esa — bu bir-biriga qarama-qarshi, bir-birini inkor etuvchi, biroq o‘zaro bog‘liq hodisalar yoki sifatlar

o'rtasidagi munosabat sanaladi. Ziddiyat tushunchasi murakkab va keng bo'lib, falsafa nuqtayi nazaridan ziddiyat borliqning harakatlanish, rivojlanish va yangilanish manbayi hisoblanadi. G.V.Gegel ta'limotiga ko'ra, "har qanday narsa va hodisaning ichida qarshi tomonlar o'rtasidagi ziddiyat uning ichki rivojlanishini ta'minlaydi" [Gegel 1959: 382]. Demak, ziddiyatsiz borliq to'xtab qolgan, harakatsiz holat bo'lar edi. Masalan, "yaxshilik va yomonlik", "hayot va o'lim", "nur va zulmat" kabi qarama-qarshiliklar inson tafakkurining asosiy kategoriyalaridandir.

Inson borliqdagi ziddiyatlarni ongi va tafakkuri orqali idrok etadi. U voqelikni anlash jarayonida narsalarning o'zaro ziddiyatli tomonlarini tahlil qiladi, ularni mantiqiy kategoriyalar (masalan, "sabab-oqibat", "imkoniyat-reallik", "inkor-tasdiq" va h.k.) orqali umumlashtiradi. Shu tariqa ziddiyat tafakkurning mantiqiy qurilishida asosiy prinsip sifatida namoyon bo'ladi.

Borliqdagi ziddiyatlarning tilda aks etishi esa inson tafakkurining verballashgan shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bu ifoda tilning turli stah birliklari orqali amalga oshadi. Jumladan: leksik darajada — antonim so'zlar orqali (*yaxshi* ↔ *yomon*, *katta* ↔ *kichik*); sintaktik darajada — antonim gaplar yoki zid munosatli konstruksiyalar orqali (*U ketdi* ↔ *U qoldi*; *Sen gapirma* ↔ *Men aytaman*); matn darajasida — ziddiyatli g'oyalar va qarashlar qarama-qarshiligi orqali. Shunday qilib, tildagi ziddiyatli munosabatlar inson tafakkuridagi ichki ziddiyatlarning ifodasi bo'lib, ular kognitiv va kommunikativ jarayonlar orqali amalga oshadi.

Lingvokognitiv tahlil nuqtayi nazaridan esa, ziddiyatli munosabatlar inson ongidagi bilimlar tizimi va konseptual tuzilmalar bilan uzviy bog'liq. Sababi inson borliqni anglar ekan, har bir hodisani uning teskari jixati bilan qiyoslab idrok etadi. Shuning uchun ziddiyatli munosabatlar tafakkurning kognitiv modellaridan biri hisoblanadi. Xullas, borliqdagi ziddiyatli munosabatlar inson tafakkurida mantiqiy umumlashtirish va qiyoslash orqali aks etadi, til esa ushbu ziddiyatlarni ifoda etishning asosiy vositasi hisoblanadi. Ziddiyatni anglash va ifoda etish qobiliyati inson bilimini faol va kreativ xususiyatini namoyon etadi. Chunki ziddiyat ham borliq, ham inson tafakkurining asosiy qonuniyatlaridan biri sanaladi. Shunday ekan, ziddiyat borliq va tafakkurning uzviy va ajarlmas qismi hisoblanadi.

Dunyo dual munosabatlar asosida qurilgan: *kun* va *tun*, *hayot* va *o'lim*, *yaxshilik* va *yomonlik*, *harakat* va *jimlik* kabi. Inson voqelikni anglar ekan, uning barcha qirralarini dual (ikki tomonlama, zid) munosabatlar orqali qabul qiladi: *nur* ↔ *soya*, *hayot* ↔ *o'lim*, *yaxshilik* ↔ *yomonlik*. Bu qarama-qarshiliklar faqat falsafiy tushuncha emas, balki tilda, ayniqsa, sintaktik tuzilmalarda ham o'z aksini topadi. Borliqdagi zid munosabatlar faqat mavjudlikning parallel tomonlari emas, balki o'zaro ta'sirda va muvozanatda bo'ladi. Bu o'rinda til tafakkurning ifodasi sifatida ushbu qarama-qarshiliklarni anglash va ifoda etishning muhim vositasiga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan, sintaktik antonimiya butun gap va sintaktik tuzilmalar darajasidagi ziddiyatni ifodalovchi samarali vosita hisoblanadi.

Bugungi kunda tilshunoslikda inson tafakkuri, bilimi va ma'naviy dunyosi til orqali qanday aks etishi masalasi antroposentrik yo'nalishning

markaziy muammolaridan biriga aylandi. Inson voqelikni idrok etish jarayonida uning muqobil va zid jihatlarini mantiqiy tahlil qiladi hamda bu zidliklarni til vositasida ifoda etadi. Shu jihatdan borliqdagi ziddiyatli munosabatlarning tilda, ayniqsa sintaktik antonimlar orqali voqelanishi masalasi lingvokognitiv tadqiqotlar tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ziddiyat — tabiat va jamiyat rivojlanishining ichki manbayi sifatida, tafakkurda esa mantiqiy tuzilishning asosiy elementi sifatida namoyon bo'ladi. Inson ongidagi har qanday qarama-qarshi tushunchalar, xolatlar yoki harakatlar tilda ma'lum sintaktik modellar orqali ifodalanadi. Bu esa sintaktik antonimlarni nafaqat grammatik yoki semantik, balki kognitiv-mazmun jihatdan ham o'rganishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, zamonaviy tilshunoslikda sintaktik antonimiya fenomeni hali yetarli darajada tadqiq etilmagan, uning kognitiv, mantiqiy va pragmatik qirralari ilmiy jihatdan chuqur yoritilmagan. Bu esa mavzuni yangi metodologik yondashuv — lingvokognitiv va antroposentrik paradigma doirasida o'rganish zaruratini belgilaydi.

Demak, borliqdagi ziddiyatli munosabatlarning tildagi ifodasi, xususan, sintaktik antonimlar orqali amalga oshishi, inson ongidagi qarama-qarshiliklarning verbal ifodasini ochish, ularning kognitiv modellarini belgilash, til va tafakkur birligini anglashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Asosiy qism

Borliqdagi ziddiyatlarning inson tafakkuridagi aksi tilda qanday ifodalanishi lingvistika, semiotika va falsafa nuqtayi nazaridan fundamental masala bo'lib, ushbu masala bilan g'arb tilshunosligida F. de Sossyur [Sossyur 1977: 272], J. Lakoff [Lakoff 2004], K. Levi-Stross [Levi-Stros 1983] kabi olimlar shug'ullangan bo'lsalar, rus tilshunosligida Y. Stepanov [Stepanov 1997], V. V. Vinogradov [Vinogradov 1972: 445], A. N. Juravlyov [Juravlyov 2001: 356] kabi tilshunoslar tomonidan chuqur o'rganilgan.

Inson dunyoga nisbatan qarashini asosan qarama-qarshi munosabatlar orqali shakllantiradi. Falsafa, antropologiya va tilshunoslik sohalarida bu munosabatlar "binar oppozitsiyalar" (ikki qutblilik) sifatida izohlanadi [Rozental 1975]. Bu o'rinda F. de Sossyur ma'noning nisbiyligi, ya'ni boshqalardan farq qiluvchi belgilar orqali yuzaga kelishini asoslab berdi [Sossyur 1977: 272]. Ushbu qarash tildagi antonimiya, ayniqsa, sintaktik antonimiyani o'rganish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

F. de Sossyur o'zining "Kurs obshey lingvistiki" asarida tilning nisbiylik va oppozitsiyalar orqali ma'no hosil qilishini ko'rsatadi [Sossyur 1977: 272]. Uning "signifier — signified" modeli tilning qarama-qarshi elementlar o'rtasidagi munosabatga asoslanganligini isbotlaydi. F. de Sossyurning fikriga ko'ra, "ma'no" jismning o'zida emas, balki uni boshqalardan farq qiluvchi ziddiyatli munosabatlarida yashaydi. K. Levi-Stros esa, inson tafakkurining asosi binar qarama-qarshilik (dual modellar, masalan, *tabiat* ↔ *madaniyat*, *oq* ↔ *qora*, *hayot* ↔ *o'lim* kabi) lardan tashkil topishini asoslab beradi va inson fikrlashidagi barcha

mexanizmlarni “binar oppozitsiyalar” [Levi-Stros 1983] deb ataydi. Misol uchun, *tabiat* ↔ *madaniyat*, *er* ↔ *ayol*, *hayot* ↔ *o‘lim* kabi dual modellar butun insoniy ongni tashkil etadi. Uning bu boradagi ishlari strukturalizmda til va tafakkurdagi ziddiyatlarni anglashda muhim hisoblanadi. Aytish mumkinki, F. de Sossor va K. Levi-Stroslarning qarashlarida ziddiyat tafakkur va tilning asosiy kategoriyasi sifatida qaralib, bu masalani o‘rganishda falsafiy va antropologik asos yetakchilik qiladi [Sossyur 1977: 7].

J. Lakoff, M. Jonsonlar o‘z ishlarida inson metaforalar orqali dunyoni qarama-qarshi mavhumlar asosida idrok etadi, masalan, *yaxshi* ↔ *yomon*, *yuqori* ↔ *past* kabi. Tildagi ko‘plab leksik va sintaktik tuzilmalar ana shu ziddiyatli kognitiv modellarga bog‘liq”, [Lakoff 2004] deya ta’kidlaydilar. N.Xomskiyning ishlarida esa, “tafakkur va til o‘rtasidagi aloqa, ongdagi muqobil (alternativ) tuzilmalar, potensial ziddiyatli konstruksiyalar tahlili orqali yoritilib, universal grammatikada ham ziddiyatli munosabatlar mavjudligi nazarda tutiladi [Xomskiy 1972: 220].

Inson dunyo haqidagi tushunchalarni til orqali ifoda etadi. J. Lakoff va M. Jonsonlarning ta’kidlashicha, “metaforalar va antonimlar kognitiv strukturalarni tashkil etadi. Ular “*time is money*” (*vaqt* ↔ *pul*) kabi metaforalarda ham qarama-qarshilik asosida qurilganligini belgilaydilar [Lakoff 2004]”.

Aytish mumkinki, ularning ishlarida F. de Sossyur va K. Levi-Stroslarning qarashlaridan farqli ravishda borliq va tafakkurdagi zid, ya’ni dual munosabatlarning tildagi in’ikosi aks etganligini ko‘rish mumkin [Sossyur 1977: 7]. Borliqdagi ziddiyatli munosabatlarning tilda sintaktik antonimlar orqali voqelanishi masalasi rus tilshunolarining ham diqqat markazida bo‘lib, ushbu masala bilan Y. Stepanov [Stepanov 1997], V. Vinogradov [Vinogradov 1972], A. Juravlyov [Juravlyov 2001], A. Vejbitskayalarning ishlarida ko‘zga tashlanadi [Vejbitskaya 1999: 287]. Xususan, Y. Stepanov ishlarida “Madaniy va falsafiy qarashlardagi duallik va ularning tildagi ifodasi sanalgan ziddiyatli munosabatlar madaniy-simvolik kategoriya sifatida sharhlangan” [Stepanov 1997] bo‘lsa, V. Vinogradov bu boradagi ishlarida “Sintaktik qarama-qarshilik va leksik ziddiyatlarning grammatik ifoda vositalari tahliliga to‘xtalib, ziddiyatli munosabatlarni “*U ketdi* ↔ *U qoldi*” kabi gaplar tahlili asosida ko‘rsatib beradi [Vinogradov 1972]. Tilshunos A. Juravlyov bu borada maxsus asar yaratib, unda tildagi va tafakkurdagi qarama-qarshilik kategoriyalarini sintaktik va semantik jihatdan chuqur o‘rganadi [Juravlyov 2001]. U sintaktik antonimiyani tafakkurning strukturaviy ifodasi sifatida ta’riflaydi. A. Juravlyovning fikricha, “*Yolg‘izlikda yashash* ↔ *Jamoadi yashash*” kabi ifodalarda nafaqat grammatik, balki mafkuraviy ziddiyat ham bor [Juravlyov 2001]. Ko‘rinadiki, sintaktik antonimiya — bu sintaktik tuzilmalarda (gaplar, birikmalar, konstruksiyalar) ikki qarama-qarshi ma’noni ifoda etish vositasidir. Bu kategoriya tilning nafaqat grammatik, balki ma’naviy va mental funksiyasini ham ifoda etadi. Masalan,

U keldi ↔ *U ketdi*.

Men ishlayman ↔ *Sen dam olasan*.

U gapirdi ↔ *Men jim turdim*.

A. Juravlyov ta'kidlaganidek, sintaktik antonimiya inson tafakkurining ziddiyatli strukturasi namoyon qiluvchi semiotik vositadir [Juravlyov 2001]. Bunday ifodalar ma'noni chuqurlashtiradi, fikrni ziddiyatli nuqtada ochib beradi va kommunikativ ta'sirni kuchaytiradi.

Ziddiyatli munosabatlarni ifodalashning semiotik, madaniy va ma'naviy jihatlarini Y. Stepanov, A. Vejbitskaya ishlarida keng tahlil qilinib, Y. Stepanov rus madaniyatidagi "duallik"ni tildagi konseptlar tahlili asosida ko'rsatib, (Masalan, *"to'g'ri ↔ noo'rin"*, *"tadbir ↔ beqarorlik"* kabi) abstrakt tushunchalar orqali ma'naviy qadriyatlarning ham qarama-qarshiligi aks etadi, deb ta'kidlaydi [Stepanov 1997]. A. Vejbitskaya o'z ishlarida universal ma'nolar (semantic universals) tizimi orqali inson tafakkuridagi "antonim" va "ziddiyat" tushunchalarini ochib beradi. Uning belgilashicha, "ma'no universalialari" tushunchasi ham shunga bog'liq: har qanday tilda *"jo'shqin ↔ xotirjam"*, *"yaxshi ↔ yomon"* kabi mavhum tushunchalar mavjud bo'lib, ular inson tafakkurining umumiy xususiyati sanaladi [Vejbitskaya 1999: 287]. Shuningdek, u metafora, empatiya, ziddiyat kabilarni turli tillarda aks etishini ham tahlil qiladi.

Bizningcha, sintaktik antonimiya insonning dunyoga nisbatan ziddi fikrlar orqali lisoniy obraz yaratishida muhim vositadir. Bu turdagi tuzilmalar faqat tilning grammatik imkoniyati emas, balki nutqiy ifodada madaniy va falsafiy mazmunni uzatish uchun ham xizmat qiladi. Shuning uchun, borliqdagi ziddiyatlar inson tafakkurida binar modellar asosida aks etadi va bu jarayon tilda sintaktik antonimlar orqali yorqin namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, borliqdagi ziddiyatli munosabatlarning tilda sintaktik antonimlar orqali voqelanishi o'rganish bugungi kunda kognitiv tilshunoslik, semantik modellar va madaniy semiotika aspektida ziddiyatni falsafiy-ma'naviy kategoriya sifatida, tilda uning sintaktik antonimiya orqali qanday ifodalanishini, undan inson tafakkuridagi duallikni qanday anglash mumkinligi, bunda inson bilimlarinin o'rnini tahlil qilish lozimligini ko'rsatmoqda.

Ko'rinadiki, ziddiyat borliq va tafakkurning ajralmas qismi. U har bir ijtimoiy, ma'naviy va tabiiy jarayonning ichki harakatlashuv manbayi bo'lib xizmat qiladi. Borliq esa inson anglaydigan real dunyo. Unda barcha narsa qarama-qarshilikda mavjud: *nur va zulmat*, *ezgulik va yovuzlik*, *harakat va toqatsizlik*. Tafakkur esa bu ziddiyatlarni qabul qilib, tahlil qilib va qayta ifoda qilib beradi. Ziddiyatlar orqali inson o'z maqsadini, munosabatini, kayfiyatini yoki qarashlarini aks ettiradi. Inson tafakkuri bu ziddiyatlarni anglab, ularni til orqali voqelantiradi. Bu jarayonda nafaqat leksik, balki grammatik va sintaktik vositalar ham faol ishtirok etadi. Ular orasida sintaktik antonimiya ayni ziddiyatlarning murakkab va ko'pqirrali ifodalaridan biri sifatida ajralib turadi. Borliqdagi ziddiyatli munosabatlar tilda turli vositalar orqali ifoda topadi, ulardan biri — sintaktik antonimlar sanaladi. Bu fenomenni ilmiy asosda tushuntirish uchun avval *"ziddiyat"*, *"sintaktik antonimiya"* tushunchalariga aniqlik kiritish lozim. Borliq va ziddiyatli munosabatlarda borliq — inson tafakkuri va tajribasi bilan anglangan, moddiy va ma'naviy dunyo. Undagi ziddiyatli munosabatlar tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning qarama-

qarshilikka asoslangan o'zaro munosabatlaridir. Masalan: *kun-u tun*, *ezgulik* va *yomonlik*, *hayot* va *mamot* kabi juftliklar. Bu ziddiyatlar hayotdagi dinamik harakat, rivoj va inqirozni anglatadi.

Antonimiya esa tildagi qarama-qarshi ma'nolar tizimidir. Agar leksik antonimiya so'z darajasida namoyon bo'lsa, sintaktik antonimiya butun bir gap yoki sintaktik konstruksiya darajasida ifoda topadi. Ya'ni leksik antonimiya (masalan: *kun* — *tun*, *katta* — *kichik*) so'z darajasidagi qarama-qarshilik bo'lsa, sintaktik antonimiya butun gaplar, matnlar orqali qarama-qarshi harakat, holat, niyat yoki bahoni ifoda etadi. Bu birikmalar lo'nda, biroq kuchli semantik ziddiyatni namoyon etadi va turli subyektlarning qarama-qarshi harakatlari, istaklari, munosabatlari orqali voqelikdagi ziddiyatni namoyon qiladi. Sintaktik antonimlar grammatik (sintaktik) jihatdan qarama-qarshi ma'noni ifodalovchi, bir-biriga zid munosabatni bildiruvchi birikmalar yoki gaplar sanaladi (8:65-68). Masalan,

Men umid qildim, sen shubhalanding; Biz qashshoq, ammo baxtli edik kabi. Bunday konstruksiyalar borliqdagi qarama-qarshiliklarni sintaktik yo'l bilan ifoda etishga xizmat qiladi. Yoki:

U keldi, men ketdim gapi umumiy ma'noda zid harakatni ifodalaydi.

Men u bilan ishlashni xohlayman, u esa men bilan ishlamoqchi emas.

(zid istaklar sintaktik tuzilish orqali berilgan) kabi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, falsafiy kategoriyalar nuqtayi nazardan, dunyo binar oppozitsiyalar asosida idrok etiladi: *bor* ↔ *yo'q*, *boshlanish* ↔ *tugash*, *yaxshilik* ↔ *yomonlik*, *kun* ↔ *tun* va hokazo. Tilda esa bu ziddiyatlar nafaqat nomlanadi, balki sintaktik vositalar orqali namoyon bo'ladi. Inson bu o'rinda dinamika va badiiylikni shakllantiradi. Masalan,

U erkinlik sari intildi, lekin olam uni qo'rquv quchog'ida ushlab turdi. Ushbu misoldan ko'rinadiki, erkinlik va qo'rquv tushunchalari o'rtasidagi ziddiyat sintaktik antonimiya orqali voqelangan. Ziddiyatli munosabatlarning tilda voqelanishidagi nutqiy jarayonda sintaktik antonimlar bir qancha funksiyalarni bajaradi. Xususan:

1. Kognitiv funksiya (tafakkurdagi zid munosabatlarni shakllantiruvchi — dunyoni ikkilik asosda anglash) Bu turdagi zidlik inson tafakkuridagi ikkilik (binar) modelni aks ettiradi: *hayot* ↔ *o'lim*, *nur* ↔ *zulmat*, *yaxshi* ↔ *yomon* kabi. Kognitiv jihatdan inson voqelikni shunday qarama-qarshiliklar orqali anglaydi va tilda ham shunday ifoda etadi. Masalan, "*U yashashni xohlardi, ammo hayot uni xohlamasdi*" → Bu yerda subyekt va voqelikning qarama-qarshi pozitsiyasi (*yasha* ↔ *xohlama*) inson tafakkuridagi "*mavjudlik* va *yo'qlik*" zidligini namoyon qiladi. "*Yurak xotirjam, lekin ko'ngil/ruh tinch emas*" → *tana* va *ruh* zidligi orqali ichki kurash kognitiv asosda aks etgan.

2. Kommunikativ funksiya (fikrni kuchliroq, ta'sirchanroq yetkazadi). Bu holatda antonimiya ifoda vositasi sifatida xizmat qiladi. Gaplardagi qarama-qarshilik orqali so'zlovchi o'z fikrini ta'sirchan va hissiy jihatdan kuchli mazmun-ma'no ottenkasini yuklaydi. Masalan, "*U kulardi, ko'zlari esa yig'lardi*" → bir shaxsdagi ikki zid ruhiy holat (*kulmoq* ↔ *yig'lamoq*) orqali ichki iztirob ta'sirchan yetkaziladi. Yoki nutqiy vaziyatga bog'liq ravishda "*Sevaman deydi, ammo nafrat bilan*

qaraydi”→ soʻz va harakat orasidagi ziddlik orqali soʻzlovchining kommunikativ munosabatidagi ikki tomonlama munosabati koʻrsatiladi.

3. Funksional xoslanuvchi funksiya — adabiyotda dramatism va xarakter yaratishda xizmat qiladi. Badiiy matnda sintaktik antonimiya syujet rivojini, qahramon xarakteri va ichki kurashini koʻrsatish uchun xizmat qiladi. Bu orqali dramatism, ichki ziddiyat va xarakterning murakkabligi ochiladi. Masalan, “*U oʻzi uchun yashardi, ammo hamma narsani boshqalar uchun qilaverdi*”→ Qahramonning ichki dunyosidagi qarama-qarshilik uning xarakterini ochadi. “*Qoʻrqadi, lekin qoʻrqmasdan qadam tashlaydi*”→ Dramatik holat — qoʻrquv va jasoratning bir shaxsda mujassamligi orqali ifodalanadi. “*Sukut saqladi, ammo shu sukutning oʻzi chaqmoqdek jivirladi*”→ ifodadagi ziddlik orqali dramatik taʼsir kuchaytirilgan.

4. Ideologik funksiya. Bu funksiya qarshi gʻoya va nuqtayi nazarlarni taqdim etish imkonini beradi. Badiiy matnda qahramonlarning xarakteri, ruhiyatidagi ichki kurashlar va ziddiyatlar, voqealar rivoji sintaktik antonimiya orqali namoyon boʻladi. Aytish mumkinki, ziddiyatli munosabatlarning ideologik funksiyasida sintaktik antonimiya orqali turli qarashlar, mafkuraviy pozitsiyalar yoki ijtimoiy ziddiyatlarni namoyon etadi. Bu, ayniqsa, falsafiy yoki publitsistik matnlarda koʻp uchraydi.

Masalan, “*Birlari yerni sotadi, ikkinchilari uni himoya qiladi*”→ Ijtimoiy-ideologik ziddiyat — manfaat va vatanparvarlik gʻoyalari oʻrtasidagi toʻqnashuvi.

“*Kimdir erkinlik deya nido qiladi, kimdir tartib deb baqiradi*”→ Jamiyatdagi gʻoyaviy qarama-qarshiliklar (*erkinlik ↔ tartib*) falsafiy maʼnoda aks ettirilgan.

“*Kuch bilan emas, aql bilan gʻalaba qozonadi inson*”→ gʻoyalar, qarashlar toʻqnashuvi orqali muallifning gʻoyaviy pozitsiyasi namoyon boʻladi va hokazo.

Koʻrinadiki, sintaktik antonimiya — bu faqat grammatik ziddlik emas, balki inson tafakkuri, hissiyoti va dunyoqarashining semiotik modelidir. U kognitiv jihatdan dunyoni duallik asosida anglashni ifoda etsa, kommunikativ jihatdan nutqning taʼsir kuchini oshiradi. Funksional jihatdan badiiy toʻqnashuvni yaratadi va ideologik jihatdan qarashlar ziddligini namoyon qiladi. Xususan, ommabop, yaʼni publitsistik uslubga xos matnlarda ijtimoiy qarashlar va fikrlar ziddiyatini ifodalashda, masalan, *Hokimiyat davlat islohotini vaʼda qildi, xalq esa davlat oʻzgarishini talab qildi*. Soʻzlashuv uslubida, sintaktik antonimlar orqali, koʻpincha, soʻzlovchining hissiyoti va munosabatlarni voqelantiradi. Masalan, *Sen doʻstsan, lekin dushmanga oʻxshab ish tutasan!* kabi [Sayidiraximova 2019: 22].

Demak, qaysidir maʼnoda, inson sintaktik antonimiya orqali borliqdagi ziddiyat ifodasini berishga harakat qiladi. Bu holatda tildagi sintaktik antonimiya esa borliqdagi ziddiyatli munosabatlarni yoritishda samarali vositasiga aylanadi. Sababi sintaktik antonimiya orqali, asosan, maqsad va unga qarshi turish; harakat va unga teskari harakat; bir shaxsning istagi va ikkinchisining qarshiligi; voqealarning ijobiy va salbiy natijalari kabi borliqdagi ziddiyatli munosabatlar ifodalanadi [Sayidiraximova 2019: 22].

Ziddiyat tafakkurdagi qarama-qarshiliklarning asosiy shakli bo'lsa, sintaktik antonimiya ushbu qarama-qarshiliklarni tilda qayta ishlash va ifoda etish usuli sanaladi. Funktsional-stilistik jihatdan olib qaralganda, sintaktik antonimlar emotsional-ekspressiv ta'sir, dinamik rivoj, emotsional ziddiyat uyg'otishda muhim rol o'ynaydi [Sayidiraximova 2025]. Psixolingvistik nuqtayi nazardan qaralganda esa, sintaktik antonimlar tafakkurdagi dualizmni (ikkilikni) ifodalaydi: *yaxshilik-yomonlik*, *harakat-harakatsizlik* va h.k. kabi. Ushbu holatlarni misollar tahlilida ko'rib chiqamiz. Masalan:

O'zbek tilida borliqdagi ziddiyatli munosabatlarning tilda sintaktik antonimlar orqali voqelanishi quyidagi ko'rinishlarda ifoda etiladi. Masalan:

1. Subyektli ziddiyat. Ziddiyatning bu turi ikki shaxsning qarama-qarshi istak yoki harakatini ifoda etadi. Masalan, *Men u bilan kuylashni xohlardim, u esa men bilan sukut saqlardi. U intiladi, sen e'tibor bermaysan.* Ushbu gapda ikki shaxsning turlicha munosabati sintaktik antonimiyada berilganligini ko'rishimiz mumkin.

2. Harakatli ziddiyat. Bir predmetga nisbatan qarama-qarshi harakatda aks etadi. Masalan, *U chiqdi, u esa kirdi. Ular keta boshladi, biz esa qoldik.* Bu yerda qarama-qarshi harakatlar sintaktik jihatdan aks etganligini ko'rishimiz mumkin. *Men ketayotgandim, u qolmoqchi bo'ldi.* Bu misolda harakat yo'nalishlaridagi ziddiyat sintaktik tuzilish orqali ifoda etilgan.

3. Emotsional ziddiyat. Bunda bir holatning ikkinchiga zid psixologik ahvol bilan almashinishi nazarda tutiladi. Masalan, *Kuldi bola, yig'ladi ona. Bola yig'ladi, ona kuldi.* Quvonch va qayg'u qarama-qarshiligi sintaktik antonimiya orqali ifodalangan.

Ziddiyatning bu turi, asosan, badiiy uslub uchun xos sanaladi. Sababi adabiyotda ziddiyat markaziy ma'no tashuvchi vositalardan biri bo'lib, qahramonlarning ichki dunyosi, voqealarning rivojlanishi, dramatik vaziyatlar ana shunday sintaktik ziddiyatlar orqali ifodalanadi. Masalan,

"Men kutdim, u esa kelmadi..." (U. Hamdam asarlarida uchraydigan emotsional ziddiyat.)

"Xalqqa xizmat qildim, xalq esa mendan yuz o'girdi." (Omon Matjon she'riyatida ifoda topgan xalq va shaxs munosabatidagi ziddiyat.) Bunday ifodalar sintaktik antonimiya vositasida nafaqat bir qarama-qarshilikni, balki tuyg'u, fikr va ta'sirni ham ifoda etadi.

Ba'zi o'rinlarda borliqdagi ziddiyatli munosabatlarning tilda aks etishi folklor va ommaviy nutqda ham keng uchrashini ko'rishimiz mumkin. Sababi folklor xalq tafakkuri, uning borliqqa munosabati aks etgan janr. Unda ziddiyatlar antitezalar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, *"Qo'rqoq o'lmas — botir bir o'lar"*. Ushbu maqolda sintaktik qarama-qarshilik o'tkir tafakkur orqali berilganligini ko'rishimiz mumkin. Yoki *"Do'st kerak — dushman topildi"*.

Inson tafakkuri tabiatan ikkilik asosga ega: u dunyo hodisalarini qarama-qarshiliklar orqali anglaydi va umumiy mantiqiy tugallikni antitezalar sintezidan qidiradi. Shu jihatdan, sintaktik antonimiya nafaqat tilning grammatik qurilishida, balki inson tafakkurining **kognitiv modellarida** ham o'z ifodasini topadi.

Masalan, “*Ajalga davo yo‘q, yomonga — balo*” misolida tafakkurda “**inson — hayot — ajal**” uchligida shakllanadi. Bu modelda inson hayotni uzaytirishga intiladi (intension harakat), ammo ajal uning xohishiga zid ravishda tabiiy chegara sifatida namoyon bo‘ladi. Bu hol kognitiv jihatdan “**inson istagi ↔ real natija**” qarama-qarshiligi modeliga to‘g‘ri keladi.

“*Bilimsiz kishiga ish yo‘q, Ilmsiz kishiga osh yo‘q*” jumlasining kognitiv tuzilishi “**inson faoliyati ↔ bilim**” munosabatiga tayanadi. Bu yerda insonning ijtimoiy orzusi (“*ish*”, “*osh*”) va uning amaliy zamini (“*ilm*”, “*bilim*”) o‘rtasidagi bog‘liqlik ongda **sabab–natija munosabati** modeli orqali anglanadi. Sintaktik antonimiya orqali tafakkur “*bilimsizlik — yo‘qotish*” formulasidagi natijaviy ziddiyatni belgilaydi.

Shuningdek, “*Dorboz dordan o‘lar, Morboz — mordan*” maqoli inson faoliyati va uning oqibati o‘rtasidagi kognitiv bog‘lanishni ko‘rsatadi. Bu model “**harakat ↔ oqibat**”, “**kasb ↔ taqdir**” munosabatida shakllanadi. Ya‘ni, inson nimani tanlasa, uning tafakkuri shu yo‘lning oqibatini ham tasavvur etadi.

Kognitiv nuqtayi nazardan bunday antonim konstruksiyalar inson ongidagi ontologik qarama-qarshilikni, ya‘ni borliq va inson hayotining ziddiyatli birligiga asoslangan fikr yuritish modelini ifodalaydi. Bu til vositasida aks etgan falsafiy tafakkurning yuqori bosqichi bo‘lib, sintaktik antonimiya orqali inson hayotidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklar konseptual darajada anglanadi.

Sintaktik antonimiya tildagi qarama-qarshilikni ifoda etish vositasi bo‘lish bilan birga, inson ongidagi olam haqidagi bilimlar tizimi — kognitiv modellarning muhim qismi hisoblanadi. Inson voqelikni anglar ekan, u hodisalarni odatda ziddliklar orqali qabul qilib, undagi dual munosabatlar tafakkurning ichki strukturasiga aylangan.

Sintaktik antonimiya ana shu dual munosabatlarni grammatik shakldagi ifodaga aylantiradi va ularni kognitiv modellar sifatida anglash imkonini beradi. Quyida yuqoridagi misollarning kognitiv modellarini tahlil qilamiz:

1. “**Inson ↔ Hayot ↔ Ajal**” modeli asosida hosil bo‘lgan “*Ajalga davo yo‘q, Yomonga — balo*” gapi

[Inson] → (intilish) → [Hayot]

↓

[Ajal] (qarshilik) kognitiv tuzilmasiga ega bo‘lib, bu modelda insonning hayotni saqlab qolishga bo‘lgan orzusi bilan ajalning tabiiy va muqobil kuchi o‘rtasidagi ziddiyat ifoda topgan. Bu o‘rinda tafakkur “*hayot*”ni markaziy konsept sifatida qabul qiladi, “*ajal*” esa uning muqobili sifatida joylashadi. Shu tarzda inson istagi va real natija o‘rtasidagi kognitiv to‘qnashuv yuzaga keladi.

2. “**Jismoniy ↔ Ma‘naviy**” abadiylik modeli asosida shakllangan “*Asl odam hech o‘lmas*” gapining kognitiv sxemasi [Jismoniy o‘lim] ↔ [Ma‘naviy abadiylik] dan tashkil topgan bo‘lib, inson ongida “*o‘lim*” so‘zi jismoniy yo‘q bo‘lishni anglatga, “*asllik*” ma‘naviy bardavomlik bilan bog‘lanadi. Bu model falsafiy nuqtayi nazardan ontologik ziddiyatni: inson jisman yo‘qolsa ham, ma‘nan saqlanib qolish orzusida ekanligini ifodalaydi. Shuning uchun “*asl*” va “*o‘lim*” qarama-qarshiligi sintaktik antonimiya orqali insoniy abadiylik konseptiga aylanadi.

3. “**Ilm ↔ Johillik**” modeli asosida hosil bo‘lgan “*Bilimsiz kishiga ish yo‘q, Ilmsiz kishiga osh yo‘q*” sintaktik antonimi [**Bilim / Ilm**] → [**Muvaffaqiyat, ish, farovonlik**]; [**Bilimsizlik**] → [**Natijasizlik, yo‘qotish**] kognitiv modeli asosida shakllangan bo‘lib, bu model inson tafakkuridagi sabab–natija munosabatini ifoda etadi. Berilgan misolda bilim insonning ijtimoiy faoliyati va moddiy turmushidagi asosiy shart sifatida anglanadi. Sintaktik antonimiya “*bor ↔ yo‘q*” qarama-qarshiligi orqali fikrning mantiqiy tuzilishini kuchaytiradi va kognitiv qiymat yaratadi.

4. “**Harakat ↔ Oqibat (taqdiriy ziddiyat)**” modeli asosidagi “*Dorboz dordan o‘lar, Morboz — mordan*” gapi esa [**Harakat / Kasb**] → [**Oqibat / Natija**] modelida bo‘lib, ushbu modelda inson faoliyati (dorbozlik, morbozlik) va uning taqdiriy oqibati (o‘lim turi) o‘rtasida bog‘liqlik mavjud. Biroq inson ongida “*nimani qilsang, shuning oqibati*” degan kognitiv munosabat o‘rnatilgan. Bu ziddiyat nafaqat tilda, balki madaniy tafakkurda ham saboq va xulosa shaklida saqlanib keladi.

5. “**Ezgulik ↔ Yovuzlik**” modelidagi “*Aslning xatosi bo‘lmas, Yomonning oshnasi bo‘lmas*” ganining kognitiv sxemasi [**Asl / Ezgu**] ↔ [**Yomon / Yovuz**] dan iborat. Bu modelda inson ongida axloqiy qarama-qarshiliklar ifoda topadi. “*Asl*” — ezgulik, poklik va haqiqat timsoli; “*yomon*” — yovuzlikning kognitiv konsepti. Sintaktik antonimiya ularni bir vaqtda taqqoslash, farqlash va baholash imkonini yaratadi.

Xullas, yuqoridagi modellar inson tafakkurining tabiiy dixotomik xususiyatini ko‘rsatadi. Inson dunyo va hayot hodisalarini antipolyar munosabatlar orqali anglaydi. Sintaktik antonimiya ana shu kognitiv jarayonning tildagi real ifodasi bo‘lib, borliqdagi ziddiyatlarni konseptual darajada tasvirlash, umumlashtirish va ma’nolashtirish funksiyasini bajaradi.

Xulosa

Borliq va inson ongi o‘rtasidagi ziddiyatli munosabatlar inson tafakkurida ikkilik (dixotomik) fikrlash tizimini vujudga keltiradi. Bu tizim voqelikni qarama-qarshiliklar orqali anglash va baholashga asoslanadi. Sintaktik antonimiya ana shu dialektik fikrlashning tildagi grammatik ifodasidir.

Inson bilimlari sintaktik antonimlarning shakllanishida markaziy o‘rin tutadi. Chunki ziddiyatli munosabatlar insonning hayotiy tajribasi, bilimi va ma’naviy qadriyatlariga tayanadi. Demak, antonimik qurilmalar tilda emas, avvalo, inson ongida yuzaga keladi. Sababi har bir antonimik juftlik inson ongidagi bilish jarayonining natijasi sifatida shakllanadi, ya’ni inson yaxshini *yomon* orqali, ezguni *yovuz* orqali, hayotni *o‘lim* orqali anglaydi.

Antonim qurilmalarning kognitiv funksiyasi esa faqat qarama-qarshilikni ifoda etish emas, balki inson bilimini faol holatga keltirish, ya’ni tafakkurni harakatga keltirish vazifasini ham ta’minlaydi. Shu bois sintaktik antonimiya faqat grammatik hodisa emas, balki inson bilimining dinamik modeli sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Xalq tafakkuridagi “*Asl ↔ Yomon*”, “*Ilm ↔ Johillik*”, “*Hayot ↔ Ajal*” kabi ziddiyatli juftliklar insonning bilish va baholash faoliyatini ifoda etadi. Ushbu juftliklar orqali inson borliq haqidagi axloqiy, falsafiy va ijtimoiy bilimlarini tuzadi va til orqali avloddan avlodga uzatadi. Bu o‘rinda sintaktik antonimlar inson ongidagi bilimlarning mazmun va shakl jihatdan uyushishini ta’minlaydi. Ular orqali inson tafakkuri real voqelikdagi ziddiyatlarni modellashtiradi, ularni mantiqiy bog‘liqlikka soladi va umumlashtirishga intilgan ma’no strukturasini yaratadi.

Kognitiv nuqtayi nazardan, sintaktik antonimlar insonning “dunyo haqidagi bilimlari tizimi”ni faollashtiradi. Inson ziddiyatli voqelikni faqat mantiqiy emas, balki emotsional va ijtimoiy tajriba orqali ham anglaydi. Tildagi sintaktik antonimiya inson bilimining faol vositasi sifatida insonning dunyoqarashi, tajribasi va madaniy merosi bilan uzviy bog‘langan. Shuning uchun uning tadqiqi faqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan emas, balki lingvokognitiv, falsafiy va madaniy paradigma doirasida ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Sintaktik antonimiya vositasida “**borliq — ong — til**” bog‘lanishi yaqqol ko‘rinadi. Til orqali inson ongidagi ziddiyatli munosabatlar ma’noga aylanadi va jamiyatning umumiy bilim fondida mustahkamlanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, sintaktik antonimlar — bu inson bilimining kognitiv izi, ya’ni insonning borliqni qarama-qarshi holatlar orqali anglash qobiliyatining tildagi ifodasi. Ular orqali inson borliqqa bo‘lgan munosabatini, bilimini va ma’naviy qarashini shakllantiradi. Demak, sintaktik antonimiya til, ong va bilimning o‘zaro bog‘liqligini namoyon etuvchi universal kognitiv mexanizmdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языков. — М.: Языки славянской культуры, 1999. — 783 с.
- Виноградов В. В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. — М.: Высшая школа, 1972. — 613 с.
- Гегель Г. В. Феноменология духа. — М.: Мысль, 1959. — 488 с.
- Журавлёв А. Н. Противоположность в языке и мышлении. — М.: Языки славянских культур, 2001. — 356 с.
- Хомский Н. Язык и мышление. — М.: Прогресс, 1972. — 125 с.
- Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живём. — М.: Лингвистическая книга, 2004. — 256 с.
- Леви-Строс К. Структурная антропология. — М.: Наука, 1983. — 399 с.
- Lutfullayeva D. E., Sayidiraximova N. S. O‘zbek tilida sintaktik antonimlarni belgilash mezonlari // AndDU xabarleri. — Andijon, 2015. — № 2. — B. 65–68.
- Sayidiraximova N. S. Sintaktik sinonim va antonimlarni kognitiv aspektda tadqiq etishning nazariy asoslari. Monografiya. — Toshkent: Zamon-Poligraf, 2025. — 192 b.
- Sayidiraximova N. S. Lisoniy ziddiyat va uning antonimo-sinonimik munosabatlardagi leksemalarda aks etishi // “Ta’limda ‘Ustoz-shogird’ tizimi — sifat va samaradorlik kafolati” mavzusidagi Respublika

miqyosidagi onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — Navoiy, 2020. — B. 295–298.

Sayidiraximova N. S. O‘zbek tilida antonimo-sinonimik munosabatlar (“Hibatul Haqoyiq” asari leksikasi misolida) // NamDU xabarlari. — Namangan, 2019. — № 11. — B. 22–23.

Sayidiraximova N. S. Semantic classification of the syntax antonyms of Uzbek language // International Scientific Journal “Theoretical & Applied Science”. — Philadelphia, 2020. — Issue 4, Vol. 84. — P. 670–673.

Соссюр Ф. Курс общей лингвистики. — М.: Прогресс, 1977. — 432 с.

Степанов Ю. Константы. Словарь русской культуры. — М.: Школа «Языки русской культуры», 1997. — 824 с.

Философский словарь / Под ред. М. М. Розенталя. — М.: Издательство политической литературы, 1975. — 496 с.

References

Vezhbitskaya, A. (1999). *Semanticheskie universalii i opisanie yazykov* (Semantic universals and language description), Moscow, Yazyki slavyanskoi kultury. (In Rus.)

Vinogradov, V. V. (1972). *Russkii yazyk. Grammaticheskoe uchenie o slove* (The Russian language: A grammatical doctrine of the word), Moscow, Vysshaya shkola. (In Rus.)

Gegel', G. V. (1959). *Fenomenologiya dukha* (The phenomenology of spirit), Moscow, Mysl'. (In Rus.)

Zhuravlev, A. N. (2001). *Protivopozlozhnost' v yazyke i myshlenii* (Opposition in language and thinking), Moscow, Yazyki slavyanskikh kultur. (In Rus.)

Khomskij, N. (1972). *Yazyk i myshlenie* (Language and thought), Moscow, Progress. (In Rus.)

Lakoff, D., & Dzhonson, M. (2004). *Metafori, kotorymi my zhivem* (Metaphors we live by), Moscow, Lingvisticheskaya kniga. (In Rus.)

Levi-Stros, K. (1983). *Strukturnaya antropologiya* (Structural anthropology), Moscow, Nauka. (In Rus.)

Lutfullayeva, D. E., & Sayidiraximova, N. S. (2015). *AndDU xabarlari*, No 2, pp. 65–68. (In Uzb.)

Sayidiraximova, N. S. (2025). *Sintaktik sinonim va antonimlarni kognitiv aspektda tadqiq etishning nazariy asoslari* (Theoretical foundations of studying syntactic synonyms and antonyms in the cognitive aspect), Tashkent, Zamon-Poligraf. (In Uzb.)

Sayidiraximova, N. S. (2020). *Ta'limda Ustoz-shogird tizimi — sifat va samaradorlik kafolati* (Proceedings of the Republican Scientific-Practical Online Conference “Mentor-Apprentice System in Education — a Guarantee of Quality and Efficiency”), Navoiy, pp. 295–298. (In Uzb.)

Sayidiraximova, N. S. (2019). *NamDU xabarlari*, No 11, pp. 22–23. (In Uzb.)

Sayidiraximova, N. S. (2020). Semantic classification of the syntax antonyms of the Uzbek language, *Theoretical & Applied Science*, Issue 4, Vol. 84, pp. 670–673. (In Eng.)

- Sossyur, F. (1977). *Kurs obshchei lingvistiki* (Course in general linguistics), Moscow, Progress. (In Rus.)
- Stepanov, Yu. (1997). *Konstanty. Slovar' russkoi kul'tury* (Constants: Dictionary of Russian culture), Moscow, Shkola "Yazyki russkoi kul'tury". (In Rus.)
- Rozental', M. M. (Ed.). (1975). *Filosofskii slovar'* (Philosophical dictionary), Moscow, Izdatel'stvo politicheskoi literatury. (In Rus.)